

INTERTEKST TUSHUNCHASI, TADQIQI VA TURLARI

Mahfuzaxon Xomidova

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
O‘zMU

ANNOTATSIYA

Intertekstuallik barcha matn turlarida faol qo‘llaniladigan vosita hisoblanib, badiiy matnda uning uchrashi ancha faolroqdir. Shu bois badiiy matnda intertekstuallik turli shakllarda qo‘llaniladi. Xususan, allyuziv nomlar, iqtibos, epigraf, sarlavha ko‘rinishlarida intertekstual matnlarga ishora qilinadi. Intertekstuallikni yuzaga keltiruvchi bu vositalar dunyo tilshunosligida intertekst atamasi ostida tadqiq qilingan, uning o‘ziga xos jihatlari aniqlangan va olimlar tomonidan turli ta’riflar berilgan. Mazkur maqolada intertekst tushunchasining mohiyati, ta’riflari va turlari, shuningdek, uning tadqiqi hamda matndagi vazifalari xususida so‘z yuritilgan. O‘zbek badiiy matnlaridan olingan misollar orqali tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, intertekstuallik, intertekst, intertekstema, allyuziya, iqtibos, epigraf.

ABSTRACT

Intertextuality is a tool actively used in all types of texts, and its encounter is much more active in artistic texts. Therefore, intertextuality is used in various forms in the artistic text. In particular, intertextual texts are referred to in the form of allusive names, quotations, epigraphs, titles. These tools that create intertextuality have been researched in world linguistics under the term intertext, its specific aspects have been identified and various definitions have been given by scientists. This article discusses the essence, definitions and types of the concept of intertext, as well as its research and tasks in the text. It is analyzed through examples taken from Uzbek literary texts.

Key words: literary text, intertextuality, intertext, intertextema, allusion, quotation, epigraph.

“**Intertekst**” – muayyan matn ichida keladigan matn yoki uning parchasi, qismlarini anglatuvchi atama, ya’ni matn tarkibida uning muallifiga tegishli boshqa matn yoki umuman o‘zga matndan olingan parchadir. Intertekstuallik bevosita matnlararo shu hodisani anglatuvchi atama sanaladi.

Ma’lumki, badiiy matnda intertekst sifatida muqaddas kitob va hadislar, folklor namunalari, boshqa bir yozuvchining asarlaridan parchalar keng qo‘llanadi.

Intertekstlar o‘z navbatida milliy-mental xususiyatlarga ega bo‘ladi. Chunki badiiy matn muallifi ko‘proq intertekst sifatida xalq ichida mashhur bo‘lgan asardan parcha yoxud xalqning milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda milliy adabiyotdan, xalq og‘zaki ijodidan foydalanadi. Shu sababdan ham matn ichidagi intertekstni o‘quvchi darrov tushunib oladi va matnda nima haqida gap ketayotganini qiyosan idrok qila boshlaydi. Chunki intertekst sifatida berilgan matn uning lisoniy xotirasidan allaqachon o‘rin olgan bo‘ladi. Bu xususiyat esa intertekstuallik hodisasini lingvokulturologik nuqtai nazardan ham o‘rganish imkonini beradi. Shuningdek, bevosita intertekstuallik hodisasining tarkibiga kiruvchi presedent birliklar lingvokulturologiyaning asosiy obyektlaridan biridir. O‘zbek tilidagi mashhur she’r va qo‘sishqlardan, Qur’on va hadislardan, rivoyat va kinofilmlardan olingan parchalarni ham intertekst sifatida baholash mumkin. Bunday holatda berilgan matn parchasi yordamida o‘sha matnning aynan o‘zi yodga tushadi va ko‘pchilikka tanish bo‘lgan bu parcha qayta tiklanish xususiyatiga ham ega bo‘ladi, intertekst bilan matn mazmuni yana ham aniqlashadi, uning o‘quvchiga estetik ta’siri kuchayadi. Yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning “Sabo va Samandar” romanidan olingan quyidagi parchaga e’tiborimizni qaratamiz: “Bechora qiz shu ketganicha universitet binosidan ham chiqib ketdi. Qolgan darslarini o‘ylab ham o‘tirmadi. O‘ylaydigan alpozda ham emasdi. Chunki...chunki...chunki...hammasi oshkor bo‘libdi!... “Sir deb saqlagani” allaqachon uning yuragida doston bo‘libdi!” [Hamdam U., 2011, 93]. Bu yerda Cho‘lponning mashhur she’ridan olingan satrlar intertekst sifatida aynan, o‘zgarishsiz, iqtibos holida berilib, qahramon qizning holatini obrazliroq ifodalash maqsadida qo’llanilgan. Bu jarayonda she’rning to‘liq matni ham qayta tiklanish xususiyatiga ega bo‘ladi.

Intertekstuallik nazariyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda intertekstuallik va intertekstni alohida-alohida atama sifatida izohlagan olimlar uning quyidagi xususiyatlari mavjudligini ta’kidlaydilar:

- har qanday matn hamma vaqt eski sitatalardan to‘qilgan yangi gazlama sifatida namoyon bo‘ladi. (R. Bart, V. Leych, Sh. Grivel va bosh.);
- bir qancha matnlar (intertekstlar) yagona matnni hosil qiladi va ular umumiy holda matnning implisit ifodasini oshkor qiladi (A. Jolkovskiy, I. Smirnov, N. Fateeva) [Фатеева Н., 2000, 280];
- intertekst – matn, sitatalar mundarijasi [Rudnev, 2001, 608];
- badiiy asar semantik strukturasini hosil qiluvchi komponent (S.Zolyan). Bu komponent matn interpretatsiyasiga yo‘l ochadi.

Intertekst o‘zida implisit mazmunni saqlagan iqtibos, matn parchasi hamda matnning semantik jihatdan shakllantiruvchi asosiy vosita bo‘lib, muayyan matnning intertekstualligini hosil qiladi. M. Riffater intertekst leksikonni birlashtiradigan,

sotsiolekt matnning bir turi va biz o‘qiyotgan matn bilan uzviy bog‘langanligini qayd etadi[Riffaterre, 1984, 141].

K. Sidorenko esa intertekstning lingvistik maqomini boshqa til birliklari qatorida deb belgilaydi. Uningcha, lingvistikada asosiy ikkita til paradigmasi mavjud bo‘lib, ular sistem-struktur va antroposentrik paradigmalardir. Birinchi paradigmada har bir til hodisasi aniq bir iyerarxik darajada joylashib, har bir daraja o‘z birligiga ega: fonema, morfema, leksema, so‘z birikmasi, gap va matn. K. Sidorenko o‘z oldiga sistem-struktur paradigmada intertekst qaysi o‘rinni egallaydi va u qanday birlik bilan ifodalanadi degan savolni qo‘yib, “intertekstema” atamasini qo‘llaydi. Uning fikricha, intertekst matnning struktur qurilishida muhim segment hisoblanib, matnlararo aloqaning leksik, grammatic, prosodik, kompozitsion jihatdan mustahkamlanishini ta’minlaydi [Сидоренко К., 2002]. Umuman, intertekst tilning barcha birliklarini birlashtiruvchi doiraviy pozitsiyada turadi.

Antroposentrik paradigmada esa “inson-barcha narsaning asosi, o‘lchovi” sifatida baholanadi. Jumladan, leksika, fonetika, grammatica kabi tilshunoslik bo‘limlari inson tafakkuri orqali tahlil qilinadi. Shu bois kommunikativ jarayonlar, nutqiy akt va boshqa bevosita inson faoliyati bilan bog‘liq hodisalar birinchi o‘ringa ko‘tariladi. Bu paradigmaga ko‘ra, intertekstuallik tilning madaniy qatlamlarini yorituvchi o‘ziga xos matniy birlik sifatida baholanadi.

Intertekstuallik nazariyasi asoschilaridan biri N. Pege-Gro intertekstni aniq yoki mavhumligiga ko‘ra tasniflaydi. “Intertekstuallikning eksplitsit shakli yaqqol ko‘rinishda bo‘ladi: ular tipografik (kursiv, qavs) belgilar yoki semantik ko‘rsatkichlar, masalan, eslanayotgan muallifning ismi, asar va qahramon nomi kabilar bilan beriladi. Agar intertekstuallik implisit bo‘lsa, uning ko‘rsatkichlari noaniq va turli-tuman bo‘ladi”[Pege-Gro, 2008, 133]. Olim ta’kidlagan eksplitsitlik izohlarsiz ham tushunarli, ammo intertekstuallik implisit, ya’ni yashirin berilishi ham mumkin. Bu, asosan, yaxlit matnlar parodiyaga aylantirilganda, o‘xshatmalar yozilganda, iqtiboslar matn qismi sifatida belgisiz kelganda, allyuziv nomlar intertekstuallikni hosil qilganda namoyon bo‘ladi. Intertekstuallikning implisit shakli ostidagi mazmunni tushunish o‘quvchining tafakkuriga, dunyoqarashiga bog‘liq bo‘ladi.

Olimlar intertekstni sinergetika nuqtai nazaridan ham baholaydilar, ya’ni u chegarasiz, ochiq tizim. Muallif o‘z asarida bu tizimdan istagancha foydalanadi. Aynan shu o‘rinda vaqt va intertekst masalasi ham o‘rtaga chiqadi. Muallif o‘z asarini hozirgi vaqtida (lived time) yaratadi, intertekst esa o‘tgan zamon mahsuli hisoblanadi, chunki u biror muallifning asari parchasi, muqaddas kitoblar qismi yoki xalq og‘zaki ijodi sifatida allaqachon yaratilib bo‘lingan. Badiiy matnda esa aynan shu ikki zamon birlashadi. Bundan asosiy maqsad esa muallif pozitsiyasining ishonarli, jonli

chiqishidir, shuningdek, kitobxon-adresantning darajasi, ijtimoiy statusi ham inobatga olinadi.

Intertekstning 3 ta asosiy tashkil etuvchi elementi mavjud bo‘lib, bular:

1. Vaqt.
2. Inson.
3. Matn [Кузьмина Н., 2004, 272].

Vaqt intertekst namoyon bo‘lishi uchun zarur komponentlardan biri hisoblanib, uning yuzaga chiqishida talab qilinadigan sharoitdir.

Ma’lumki, matnda u yoki bu vaqt, davr tasvirlanadi. Shuningdek, unda o’sha davrga oid diniy, mifologik ilmiy qarashlar ham aks etadi. Shu bois ham intertekstni tushunish uchun vaqt muhim hisoblanadi. Chunki muayyan matn taqdim etilgan davr va intertekst yaratilgan vaqt orasida, albatta, tafovut mavjud bo‘ladi. Matn muallifining bor mahorati esa ana shu ikki vaqtning birlashtira olishida namoyon bo‘ladi.

Intertekst uchun zarur omillarning ikkinchisi inson omilidir. Inson va matn aloqasi ikki tomonlama bo‘ladi:

Muallif va kitobxon juftligi. Har qanday matn kim uchundir yoziladi yoki aytiladi. Hatto uning o‘quvchisi aniq yoki anonim bo‘lishi ham mumkin. Muallif ma’lum bir mazmunni til vositasida kodlab, matn holida taqdim etadi. Kitobxon esa matnni o‘z dunyoqarashidan va matn mundarijasidan kelib chiqib dekodlaydi. Kodlash, dekodlash kabi tushunchalar zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan psixolingvistikaning, umuman til va tafakkur bilan bog‘liq sohalarning muhim tushunchalaridan biridir. Bu bevosita matnni tushunish, uni qabul qilish va qayta hikoya qilish bilan bog‘liq jarayondir.

Hamma yozuvchi ham badiiy matnda o‘z niyatini to‘liq bayon etmaydi. Xulosa chiqarishni, tushunishni kitobxon-adresantga qoldiradi. Shu sababli ham har qanday matnda uni tushunish uchun kalit vazifasini bajaruvchi til belgilari mavjud bo‘ladi. Bu matn persepsiyasiga yo‘nalish beradi.

Shuningdek, matn-muallif va matn-kitobxon juftligida quyidagi nuqtalar o‘zaro birlashadi:

1. Ma’lum bir til belgilari soni.
2. Muallif va kitobxon konseptual tizimining bir-biriga mosligi, asos, an’analar va madaniyatlar birligi.
3. Vaqt, ya’ni asar yaratilgandan to o‘qilgungacha bo‘lgan davr oralig‘i.

Shu uch muhim omil birlashib intertekst orqali asosiy matnning tushunilishini osonlashtiradi.

Intertekst amal qilishi uchun zarur omillarning so‘nggisi bu matndir.

Demak, intertekst matn tarkibidagi iqtibos, matn parchasi, yashiringan o‘zga matn, umuman olganda, matn komponenti bo‘lib, intertekst sifatida baholanadigan

lisoniy birliklarning o‘ziga xosligi, ularning ham umumiy va xususiy tomonlari borligi qator tadqiqotlarda qayd qilingan. Intertekst muammosiga bag‘ishlangan tadqiqotlardagi fikrlarni umumlashtirib, uning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Intertekst vaqt sinovidan o‘tgan bo‘ladi. Unda boshlanish va tugallanish bo‘lmaydi. Shuningdek, uning chegarasi ma’lum emas. Intertekst markazida Inson omili turadi.

2. Intertekstning qo‘llanishidan asosiy maqsad xaos (tartibsizlik)dir. Kitobxonga alohida-alohida vositalar orqali ta’sir qilgan holda, uning fikrlari umumlashtiriladi. Ya’ni insonning mental dunyosi ishga tushadi, lisoniy bazasidan o‘zi uchun kerakli ma’lumotlarni izlaydi va mustaqil xulosa chiqaradi.

3. Matn ichida intertekst ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

- a) asar;
- b) matn.

Badiiy asarning tushunilishi quyidagicha tashkillanadi: asar yozilgan tilning vositasida va uning qo‘shimcha unsurlari orqali matn o‘quvchi tomonidan tushuniladi. Intertekstning badiiy matnga kirib kelishi asarning tartiblilikdan, yaxlitlikdan xaosga o‘tishini belgilaydi. Xaosning badiiy asardagi vazifasi shuki, kitobxon badiiy matn mazmunini, uning g‘oyasini intertekstlarni birlashtirgan holda mustaqil o‘zi tiklaydi. Bu esa muallif va o‘quvchi uchun muhim hisoblanadi.

4. Intertekst til tizimini qayta tiklaydi, markazlashgan tizimni qayta markazlashtiradi.

5. Intertekst eng katta til materiali sifatida matnda qatnashadi, xuddi tovush, so‘z, gap kabi matnni tashkil qiluvchi qism hisoblanadi. Intertekst sifatida olingan aforizmlar, mashhur iboralar, matn qismlari badiiy matnning tushunilishini osonlashtiradi.

6. Intertekst til va nutq dixotomiyasini tasvirlovchi asosiy vosita hisoblanadi. Intertekst nutqiy faoliyat natijasi hisoblanadi, u muallif va kitobxon o‘rtasidagi nutqiy faoliyatni jonlantiradigan asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Intertekstning tasnifi ham juda murakkab va bahsli masalalardan biridir. Ingliz olimlari R. Miola va G. Hopkin intertekstuallikning matnda uchrashi, ya’ni intertekstni yetti turga ajratadi. Ular bu yetti turni uchta kategoriyaga birlashtirib o‘rganadilar. R. Miola o‘zining “Intertekstuallikning yetti turi” nomli maqolasida quyidagi tasnifni keltiradi va izohlaydi:

1-kategoriya:

- 1. Takror
- 2. Tarjima
- 3. Sitata

4. Manba, asos

2-kategoriya:

5. Badiiy asarlardagi an'ana, shakl

6. Janrlar

3-kategoriya

7. Paralogik intertekstuallik (allyuziv nomlar, presedent birliklar)[Miola].

R. Miola tasnidagi takror, tarjima, manba, an'ana, shakl hamda janr bu – yaxlit badiiy asar uchun xos bo'lgan xususiyatlardir. Intertekstning yuqorida sanalgan turlarida ma'lum bir badiiy asar boshqa bir asar yaratilishi uchun manba sifatida baholanadi. Olim bunda muayyan bir matnning o'zini intertekst sifatida baholaydi. Maqolada muallif asosan V. Shekspir drama va sonetlari keyingi ijodkorlar uchun intertekst bo'lib xizmat qilganligini misollar yordamida izohlaydi.

Intertekstuallik haqida jiddiy izlanishlar olib borgan rus olimasi N. Fateeva esa badiiy matndagi intertekst turlari sifatida quyidagilarni belgilaydi:

1. Allyuziya
2. Reminissensiya
3. Epigraf
4. Sarlavha
5. Havola (sitata)
6. Aforizmlar
7. Maqol, metal[Фатеева Н., 1998, 25].

N. Fateeva tasnidida keltirilgan aforizm va maqol-matallarni alohida intertekst turi sifatida baholash, bizningcha, to'g'ri emas. Chunki maqol va matallar intertekst sifatida allyuziv nom, sarlavha va epigraf, iqtibos ko'rinishida ham uchrashi mumkin. Aforizmlarda ham xuddi shunday holatlarda badiiy matn tarkibida uchraydi. Shu bois olma ajratgan aforizm va maqollarni intertekst turi sifatida emas, balki uni shakllantiruvchi manba sifatida qayd etish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, Sharq adabiyoti, xususan o'zbek badiiy matnida qadimdan didaktik ruh ustunlik qilgan. Ana shu didaktik ruhni berish uchun avval badiiy matnda maqol, matallardan foydalanish keng tarqalgan bo'lsa, keyinchalik islom dini kirib kelgach, Qur'on parchalari, hadis namunalaridan badiiy matnga kiritish an'anasi avj oldi. Gulxaniyning "Zarbulmasal", Nosiruddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarlarida aynan shunday usul qo'llanganini kuzatishimiz mumkin. Shu bois Sharq, xususan, o'zbek adabiyotida Qur'on oyatlari, hadislar, folklor namunalarini: maqol, matal, afsona va rivoyatlardan intertekst sifatida faol qo'llanilgan.

Biz o'zbek badiiy matnlarida uchraydigan intertekstlarni shakliy jihatdan quyidagicha tasniflashga harakat qildik: allyuziya, reminissensiya, epigraf, sarlavha, iqtibos (havola, sitata), parodiya. Intertekst sifatida o'zbek badiiy matnlarida bu

shakllar faol uchraydi va aynan ular intertekstuallikning barcha xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Xulosa qilish mumkinki, intertekst eng katta matn birligi sifatida badiiy matn tarkibida kelib, undagi intertekstuallikni hosil qiladigan asosiy vositadir. U badiiy matnning estetik ta’sirini oshirishi, mazmuniy idrokiga ta’sir qilishi bilan birga badiiy matnning qiymatini, qomusiyligini yana ham kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Hamdam U. Sabo va Samandar. – T.: O‘zbekiston, 2011. – B.93.
2. Кузьмина Н. А. Интертекст и его роль в процессах эволюции поэтического языка Текст. / Н.А. Кузьмина. Изд. 2-е, стереотипоное. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – С. 272.
3. Пьеge-Гро Н. Введение в теорию интертекстуальности. – М.: ЛКИ, 2008. – С. 133.
4. Riffaterre M. Intertextual Representation: On Mimesis as Interpretive Discourse,Critical Inquiry, 1984. – P. 141-162.
5. Руднев В. П. Энциклопедический словарь культуры XX века Текст. / В.П. Руднев. – М.: Аграф, 2001. – С. 608.
6. Сидоренко К. П. Интертекстовые интерпретаторы в “Словаре крылатых выражений Пушкина” // Слово. Фраза. Текст. – М., 2002. – С. 317-330.
7. Фатеева Н. А. Контрапункт интертекстуальности или Интертекст в мире текстов Текст. / Н.А. Фатеева. – М.: Агар, 2000. – С. 280. Фатеева Н. А. Типология интертекстуальных элементов и связей в художественной речи Текст. / Н. А. Фатеева // Известия АН. Серия литературы и языка. 1998. Т. 57. - №5. – С. 25 - 38.
8. Xomidova M. F. The problem of intertextuality in modern linguistics //Central Asian Problems of Modern Science and Education. – 2019. – Т. 3. – №. 4. – С. 259-263.
9. Qizi x. M. F., tursunova l. Intertextuality and its sources in the creation of Muhammad Yusuf //international scientific conferences with higher educational institutions. – 2022. – т. 1. – №. 23.12. – с. 41-50.
10. <http://www.dissercat.com/content/intertekstualnost-kak-obshchii-mekhanizm-tekstoobrazovaniya>
11. Miola R. Seven types of intertextuality.
<https://loyolanotredamelib.org/Chaired/docs/SevenTypesIntertextuality-04.pdf>